



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

SIGIRLAR KLINIK VA SUBKLINIK MASTITLAR DIAGNOSTIKASIDA TEZKOR MASTIT TISTLARIDAN FOYDALANISH.

R. I. Bobomurodov

Tayanch doktarant

O.U. Kuldashev

Ilmiy rahbar, v.f.d.

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada klinik va subklinik mastit bilan kasallanganligi guman qilingan sigirlardan olinadigan sut namunalarini tekshirish, mastit bilan kasallangan hayvonlarni ajratish, sog‘ib olingan sutning iste’mol uchun qanchalik darajada yaroqliligi aniqlanib amaliyotga tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so‘zлari: ekspress diagnostika, sut bezi, subklinik, mastidin, mastit, sut, profilaktika, diagnostika, kazein, laktoza, oqsil, albumin.

Keyingi yillarda mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, chorvachilik mahsulotlariga (go‘sht, sut, tuxum) bo‘lgan talabni qondirish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar chiqarildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2017 yil 16 martda «Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-2841-sonli, 2019-yil 18-martda «Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4243-son va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevralda «O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-120-son qaroriga binoan qishloq xo‘jaligini moderinizatsiya qilish va jadallashtirishga qaratilgan qarorlari mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirishda va ushbu tadqiqotlarni bajarishda asosiy dastur bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari O‘zbekiston



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

Respublikasi Prezidentining, 2023 yil 24-avgustda «Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-285-son qarorida chorvachilik sohasiga zamonaviy innovatsion usullarni joriy etish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va chorvachilik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan dasturni ijrosini ta'minlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Mavzuning dolzarbliги

Mamlakatimiz chorvachilik fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirish hamda veterinariya-sanitariya talablariga javob bera oladigan sut mahsulotlarini olishda, sut bezi kasalliklarini oldini olish va unga qarshi kurashish asosiy vazefalardan biridir. Hozirgi vaqtda sog'in sigirlarning mastit kasalligi bilan o'rtacha kasallanishi mamlakatimizda 18-22 foizni tashkil etsa, bu ko'rsatgich dunyoning ba'zi mamlakatlarda 10,5-41,6 foizni tashkil etishi aniqlangan. Mastit sog'in sigirlar orasida qo'l bilan sog'ishda 20-25 %, mashina bilan sog'ishda 35-40 % uchraydi. Sutdan chiqqan davrida 17,5 %, laktatsiya davrida 20-23,7 foizgacha yetadi. Biz bilamizki sog'in sigirlar orasidagi mastitlar asosiy muammolardan biri hisoblanib; yuqori mahsuldor hayvonlarning xo'jalikda foydalanish muddati 6-8 yoshgacha qisqarishi hamda sigirlar qisir qolishi natijasida muddatdan ilgari yaroqsiz bo'lib yo'q qilinishi, sut mahsuldorligining 15-20 % pasayishi va uning yog'lilik darajasi 0,8-1 % gacha tushib ketishi, sifatining yomonlashishi, yangi tug'ilgan buzoqlarning kasallanishi va o'limining ko'payishi shuningdek ushbu kasallikni tashxislash, davolash va oldini olish uchun sarflangan xarajatlar natijasida katta iqtisodiy zarar keltirib chiqaradi.

Qoramollar mastit kasalligi katta iqtisodiy zarar keltirib chiqarishi bilan bir qatorda jiddiy ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkinligini yodda tutish kerak. Yani patogen mikroorganizmlar va ularning metabolik mahsulotlarini o'z ichiga olgan sut va sut mahsulotlarini iste'mol qilishdan odamlarning, ayniqsa yosh bolalarining ommaviy oziq-ovqat mahsulotidan zaharlanish holatlari mavjud.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

Bugungi kunda sigirlarning kataral-yiringli mastit kasalliklari uchun turli xil diagnostika usullari, davolash va oldini olish uchun ko‘plab dorilar mavjud bo‘lishiga qaramasdan ushbu kasalliklar hali ham xo‘jaliklarda keng tarqalgan. So‘nggi paytlarda an’naviy davolash usullari samaradorligining pasayishi, bir qator terapevtik dori vositalarining, ayniqsa antibiotiklarni o‘z ichiga olgan dorilarning samaradorligi asta-sekin pasayib borishi natijasida qishloq xo‘jaligi hayvonlarining kasalliklari sezilarli darajada oshib bormoqda. Ushbu jarayonlarning barchasi patogen mikroorganizmlarning qo‘llaniladigan dorilarga nisbatan chidamliligi oshishi bilan bog‘liq. Shuning uchun bu muammoni yechimini topishda faqat kompleks yondashuv kerakli natijalarni berishi mumkin. Sut bezlari yallig‘lanishini tashxislashning usullarini takomillashtirish, yangi samaraliroq terapevtik dori vositalarini topish hamda kataral-yiringli mastit kasalligini davolash uchun ulardan foydalananish sxemalarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilishi dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi

Tadqiqotimizning maqsadi Samarcand viloyati ayrim Tumanlaridagi qoramolchilik fermer xo‘jaliklarida boqilayotgan yuqori mahsuldor sigirlarda akusher-ginekologik dispanserizatsiya ishlarini olib borish hamda mastit kasalligining tarqalish darajasini, kechish xususiyatlarini, turlarini va xarakterli klinik belgilarini o‘rganish.

Material va metodlar

Tadqiqotlarimiz materiallari sifatida Samarcand viloyati Narpay tumanida joylashgan “Tohir Yusuf chorvasi” chovchilik fermer xo‘jaliklariga qarashli qoramolchilik fermer xo‘jaliklarida parvarishlanayotgan sigirlarda olib borildi. Ushbu fermer xo‘jaliklardagi klinikasi aniq bo‘lmagan mastit kasalligiga (subklinik) va klinikasi aniq bo‘lgan mastitga uchragan sigirlardan olingan sut na’munalari ishlatildi. Sigirlar sut bezining holati ma’lum veterinariya dasturlari asosida nazorat qilib turildi. Klinikasi aniq bo‘lmagan mastit kasalligiga (subklinik) diagnoz qo‘yish uchun mastidin na’munasi qo‘llanildi.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

Tadqiqotlarimiz davomida subklinik mastitni aniqlashda 2% li mastidin eritmasidan foydalanildi. Bunda ishni bajarish uchun maxsus chuqurchali sut plastinkasi olinib, sut bezining har qaysi bo‘lmalaridan 1 millilitrdan sut sog‘ib olindi (na’muna oxirgi porsiya sutdan olindi) va uning ustiga 1 millilitrdan 2 foizli mastidin eritmasi qo‘shildi. So‘ngra har qaysi chuqurchadagi sut bilan mastidin bir biri bilan to‘liq qo‘shilguncha, shisha tayoqcha bilan aralashtirildi (1-2-rasmlar).



1-rasm. Plastinkasiga sut sog‘ish jarayoni



2-rasm. Sut va mastidinni aralashtirish

Reaksiyaning natijasi sut bilan mastidin qo‘shilgandan keyin hosil bo‘ladigan aralashmaning quyuqlashishi va rangining o‘zgarishi asosida baholandi. Agar musbat reaksiya bo‘lsa, aralashma tovuq tuxumi oqsili singari quyuqlashadi va rangi to‘q binafsha yoki qizg‘ish tusga kiradi, reaksiya manfiy bo‘lsa sutning konsistensiyasi diyarli o‘zgarmaydi, aralashmaning rangi ochbinafsha yoki oqish tusga kiradi.

Natijalar va ularning tahlili

ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davomida Samarqand viloyati Narpay tumanida joylashgan “Tohir Yusuf chorvasi” chorvachilik xo‘jaligida akusher ginekologik dispanser tekshirish ishlari olib borildi. Tekshirishlar davomida jami 68 bosh sigirlar tekshirildi. Shulardan 4 bosh sigirlar endometrit bilan kasallanganligi, 3 bosh sigirlarda yo‘ldosh ushlanib qolishi, 8 bosh sigirlar subklinik mastit bilan



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

kasallanganligi 9 bosh sigirlar klinik mastit bilan kasallanganligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval Sigirlarning akusher-ginekologik dispanserizatsiya natijalari.

№	Xo‘jalik nomi	Bosh soni	Kasalliklar nomi							
			Endometrit		Yo‘ldoshi ushlanib qolishi		Subklinik mastit		Klinik mastit	
			b/s	%	b/s	%	b/s	%	b/s	%
1	Tohir Yusuf chorvasi	68	4	6 %	3	4 %	8	11,7%	9	13%

Tekshirishlar davomida klinik mastit bilan kasallangan sigirlarning 3 boshi zardobli mastit, 1 boshi fibrinli mastit, 4 boshi kataral-yiringli mastit, 1 boshi esa qonli mastit bilan kasallanganligi aniqlandi.

Xo‘jalidagi sigirlarning klinik mastit turlari bilan zararlanish darajasi 2-jadval.

№	Xo‘jalik nomi	Klinik mastit bilan kasallangan sigirlar bosh soni	Klinik mastit turlari							
			Zardobli mastit		Fibrinli mastit		Kataral-yiringli mastit		Qonli mastit	
			b/s	%	b/s	%	b/s	%	b/s	%
1	Tohir Yusuf chorvasi	9	3	4 %	1	1.5 %	4	7 %	1	1.5%

Xulosa

Tadqiqot ishlari bajarilgan chorvachilik fermer xo‘jalikda olib borilgan tekshirishlar natijasida endometrit bilan kasallangan va yo‘ldoshi ushlanib qolgan sigirlar soniga nisbatan mastit bilan kasallangan sigirlar soni proporsional tarzda o‘sib borishi aniqlandi. Buning sababi endometrit bilan kasallangan va yo‘ldoshi ushlanib qolgan sigirlardan tashqi muhitga tarkibida patgen mikroorganizmlar bo‘lgan suyuqliklar ajraladi, ushbu suyuqlik yelin so‘rg‘ichlariga tushib mastit kasalligini ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Mastit bilan kasallangan hayvonlarni aniqlash uchun fermadagi sigirlar har chorakda bir marta klinik ko‘rikdan o‘tkazilib, yelning har bir



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

bo‘lagidan alohida sut olinib, maxsus mastit tistlari yordamida tekshirib turish ushbu kasallikni ertachi aniqlashga va davolash ishlarini samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mastit bilan kasallangan hayvonlardan olinadigan sutni to‘g‘ridan to‘g‘ri iste’molga chiqarish yoki sog‘lom hayvonlar sutiga qo‘sish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мисайлов, В.Д. Методические рекомендации по диагностике, терапии и профилактике субклинического мастита у коров в сухостойный период /– Воронеж, 2005.
2. Кулдашев, О., Оринов, Х., Бобомуродов, Р., & Хамраев, Ш. (2024). Причины, лечение и профилактика алиментарного бесплодия коров. *in Library*, 2(2), 269-274.
3. Уринов Х., Колдошев О., Бобомуродов Р. Микрофлора матки коров и ее чувствительность к антибактериальным препаратам при эндометrite //in Library. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 152-153.
4. Кулдашев, О., Оринов, Х., Бобомуродов, Р., & Кулдашев, О. (2024). Эффективность современных препаратов в профилактике гинекологических заболеваний у коров. *in Library*, 2(2), 275-278.
5. Кулдашев, О., Оринов, Х., Бобомуродов, Р., & Хамраев, Ш. (2024). Причины, лечение и профилактика алиментарного бесплодия коров. *in Library*, 2(2), 269-274.
6. Уринов, Х., Колдошев, О., & Бобомуродов, Р. (2023). Микрофлора матки коров и ее чувствительность к антибактериальным препаратам при эндометrite. *in Library*, 3(3), 152-153.
7. Кулдашев, О., Оринов, Х., Бобомуродов, Р., & Кулдашев, О. (2024). Эффективность современных препаратов в профилактике гинекологических заболеваний у коров. *in Library*, 2(2), 275-278.
8. Кулдашев, О., Оринов, Х., Бобомуродов, Р., & Хамраев, Ш. (2024). Причины, лечение и профилактика алиментарного бесплодия коров. *in Library*, 2(2), 269-274.
9. O‘Rinov, H. S., Salohiddinova, N. S., & Kuldashev, O. U. (2024). GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLAR REPRODUKTIV FAOLIYATINI RAG



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

‘BATLANTIRISHDA QO ‘LLANLADIGAN OZUQAVIY QO ‘SHIMCHA “VILOFOSS” NI HAZM ORGANLARIDA BO ‘LADIGAN FERMENTATSIYA JARAYONIGA TA’SIRI. Yangi O ‘zbekiston ustozlari, 2(29), 60-63.

10. Jaxongirovna, S. Z., Rakhmatullaevich, R. O., & Ismail o‘g‘li, B. R. About the Diagnosis of Poultry Newcastle Disease. *European Journal of Agricultural and Rural Education*, 3(2), 51-54.
11. Балиев, Ш., Суванов, С., & Кулдашив, О. (2024). Диагностика патологий, возникающих в яичниках коров, современными методами. *in Library*, 2(2), 19-22.
12. Ачилов, Д., & Қўлдошев, О. (2019). Профилактика отслойки плаценты у коров. *in Library*, 19(2), 309-312.
13. Қўлдошев ОУ, М. С. (2012). Сигирлар акушер-гинекологик касалликларини даволаш. *Zooveterinariya*, 10, 33-34.
14. Мавланов, С., Қўлдошев, О., Хўжамов, Ж., & Қувватов, Х. (2016). Современные меры по предотвращению голодной смерти скота. *in Library*, 16(2), 149-151.